TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamonov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxamatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELI.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIJ TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	



TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI

Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna

TIFT universiteti "Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrası katta o'qituvchisi

Email: sultanmuratovadilrabo@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda xorijiy tajriba va usullarni o'rganishga bag'ishlangan. Unda rivojlangan davlatlarning bank tizimi faoliyatidagi resurs bazasini shakllantirish va boshqarish bo'yicha ilg'or amaliyotlar tahlil qilinadi. Xususan, banklarning kapital yetariligidini oshirish, likvidlikni ta'minlash, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va diversifikatsiyalangan resurs manbalarini jalb qilish usullari yoritiladi. Shuningdek, maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish, risklarni boshqarish strategiyalari va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi misol qilib keltiriladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, depozit, kredit, investitsiyalar, moliyaviy resurs.

Abstract. This article is devoted to the study of foreign experience and methods of strengthening the resource base of commercial banks. It analyzes the best practices of resource base formation and management in the banking system of developed countries. In particular, the methods of increasing banks' capital adequacy, ensuring liquidity, strengthening cooperation with international financial organizations and attracting diversified financial resources are highlighted. The article also provides an example of foreign experience in using modern financial instruments to ensure the financial stability of commercial banks, improve risk management strategies and interact with customers.

Key words: commercial banks, deposit, loan, investment, financial resource.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению зарубежного опыта и методов укрепления ресурсной базы коммерческих банков. В ней анализируются передовые практики формирования ресурсной базы и управления ею в деятельности банковской системы развитых стран. В частности, освещаются методы повышения достаточности капитала банков, обеспечения ликвидности, укрепления сотрудничества с международными финансовыми организациями и привлечения диверсифицированных ресурсных ресурсов. В статье также приводится пример зарубежного опыта использования современных финансовых инструментов для обеспечения финансовой стабильности коммерческих банков, совершенствования стратегий управления рисками и взаимодействия с клиентами.

Ключевые слова: коммерческие банки, депозит, кредит, инвестиции, финансовый ресурс.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda tijorat banklari mamlakat moliyaviy tizimining asosiy instituti sifatida muhim rol o'ynaydi. Ular jamg'arma va investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiyotning turli sektorlarini moliyalashtirish hamda pul oqimlarini samarali boshqarish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Shu bois banklarning resurs bazasini mustahkamlash masalasi nafaqat ularning o'z faoliyati barqarorligi, balki milliy iqtisodiyotning umumiy rivojlanishi uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda global moliyaviy bozorlarning tezkor o'zgarishi sharoitida tijorat banklari uchun resurs bazasini diversifikatsiya qilish, kapital yetariligidini oshirish va likvidlikni ta'minlash kabi masalalar nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda. Xorijiy tajribani chuqur o'rganish, rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotlarida qo'llanilayotgan ilg'or uslublarni tahlil qilish ushbu muammolarni hal etishda muhim ilmiy va amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bank tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning 2020-yil 2-martdagi PF–5953-son Farmoni "Bank tizimini tubdan isloh qilish strategiyasi to'g'risida" hujjatida bank resurslarining davlat manbalariga qaramligini kamaytirish, kreditlash jarayonlarini bozor tamoyillari asosida tashkil etish, bank faoliyatida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, kapital yetariligi va likvidlik ko'rsatkichlarini xalqaro talablarga mos ravishda oshirish hamda bank xizmatlarining sifatini yaxshilash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan (Lex.uz, 2020). Mazkur hujjat bank sektorining moliyaviy mustahkamligini ta'minlash va resurs bazasini barqaror manbalar asosida shakllantirish uchun muhim huquqiy zamin yaratdi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki,



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) kabi tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish ham banklarning kapital bazasini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining 2023-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Biz bank tizimini modernizatsiya qilish, raqobatni kuchaytirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali iqtisodiyotimizni yangi bosqichga olib chiqamiz" deb ta'kidladi. Bu fikr mamlakatimiz bank tizimini jadal rivojlantirish, bozor mexanizmlarini kengaytirish va resurs bazasini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, banklarning resurs bazasini mustahkamlashda diversifikatsiyalangan moliyaviy manbalarni shakllantirish, risklarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirish, likvidlikni ta'minlash va kapital barqarorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda tijorat banklari resurs bazasining asosiy qismini bozor mexanizmlari orqali shakllantiradi, bu esa ularning raqobatbardoshligini va moliyaviy barqarorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda xalqaro tajribani o'rganish, xorijiy kapitalni jalb etish, yangi investitsion instrumentlarni joriy etish hamda ichki jamg'arma resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada rivojlangan davlatlarning bank tizimida qo'llanilayotgan ilg'or yondashuvlar, xususan, resurs bazasini shakllantirish va boshqarishning innovatsion mexanizmlari tahlil qilinadi, xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari o'rganilib, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy olimlarimizdan B. Shermuhammedov tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va samarali boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, banklarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Depozit bazasini kengaytirish: mijozlar omonatlarini jalb qilish orqali banklar o'z resurslarini ko'paytirishi mumkin. Kredit siyosatini takomillashtirish: moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish lozim. Investitsion faoliyatni rivojlantirish: banklar investitsiya loyihalarida ishtirok etish orqali daromad manbalarini ko'paytirishi mumkin. Innovatsion xizmatlarni joriy etish: yangi texnologiyalar va xizmatlarni tatbiq etish orqali mijozlar bazasini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Albatta, muallif tomonidan berilgan ta'rifni qo'llab-quvvatlagan holda, bankning resurs bazasiga ham alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lardi, deb hisoblaymiz.

Yana bir olimimiz Sh. Sh. Saipnazarov bank resurslari to'g'risida shunday fikr bildirgan: "Bank resurslari — bu bankning siyosiy strategiyalari doirasida faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan moddiy va moliyaviy mablag'larning majmuasi bo'lib, ular bankning o'z kapitali hamda jalb etilgan resurslardan tashkil topadi. Ushbu resurslar bankning iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishda asosiy baza sifatida xizmat qilishi bilan birga, daromad keltiruvchi manbalar va iqtisodiy imkoniyatlarni ta'minlovchi zaxira vositalaridan iboratdir." Bizning fikrimizcha, banklarning resurslariga beriladigan ta'riflarda ularning shakllanish manbasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki bozor munosabatlari sharoitida bank resurslarini shakllantirish, ya'ni ularning manbalarini izlab topish birlamchi vazifaga aylanib bormoqda.

Professor A. R. Norov muallifligida chop etilgan "Bank ishi asoslari" darsligida tijorat banklari resurslarini boshqarishda makromuhit va mikromuhit konsepsiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotlarga ko'ra, makromuhit bankning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarini va iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqadigan omillarni ifodalaydi. Mikromuhit esa bankning ichki muhitida, xususan, mijozlarning roli va ularning ahamiyati bilan bog'liq. Mijozlar tarkibi va ularning bank uchun iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish moliyaviy resurslarni jalb qilish va ularni samarali taqsimlash imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, "mijozlar bilan strategik munosabatlar bankning faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi."

Bundan tashqari, professor A. R. Norov va Sh. Sh. Saipnazarovlar o'zlarining "Tijorat banklarida moliyaviy injiniring metodologiyasini takomillashtirish" ham-muallifligida chop etilgan monografiyasida "banklar tomonidan tashkil qilingan resurs baza turli xil kreditlar berish va moliyaviy injiniring orqali investitsiyalarni moliyalashtirish va boshqa aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin. Tijorat banklari resurs bazasi uning kredit potentsiali darajasini belgilaydi", degan fikrni bildirganlar. Aslida, banklarning resurs bazasi faqatgina bankning kredit potentsiali darajasi bilan belgilanmaydi. Aksincha, "bankning barcha aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun manba hisoblanadi."

Sh. Sh. Saipnazarov va N. M. Shamsiyev ham-muallifligida nashr etilgan "Tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish istiqbollari" nomli monografiyasida "Tijorat banklarining resurs bazasi resurslarning turlari bo'yicha bankning o'z mablag'lari, ularga tenglashtirilgan mablag'lar hamda jalb qilingan mablag'larga ajratilgan." Fikrimizcha, yuqoridagi olimlarimiz tomonidan bank resurs bazasi haqidagi qarashlarda o'z mablag'lariga tenglashtirilgan mablag'lar tarkibini kengroq yoritib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha xorijiy tajriba tahlili ilmiy, statistik va qiyosiy usullar asosida olib borildi. Ma'lumot manbalari sifatida AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlari bank tizimlari bo'yicha xalqaro moliya tashkilotlarining (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, YeTTB) ochiq hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida bank resurs bazasining tuzilmasi, dinamikasi va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, JPMorgan Chase, UBS va Credit Suisse kabi yirik tijorat banklarining amaliy tajribasi o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasiga moslashtirish uchun induktiv va deduktiv tahlil usullari, taqqoslama iqtisodiy tahlil hamda empirik kuzatish metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor qonuniyatlariga asoslangan mamlakatlarda tijorat banklari aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning asosiy manbasi bo'lib, mijozlardan jalb etilgan muddatli va jamg'arma depozitlari hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, kapital tijorat banklarining faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanadi; ikkinchidan, tijorat banklari faoliyatining mohiyatiga ko'ra, aholi va korxonalarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini depozit hisobvaraqlariga jalb qilish va ularni kreditlar, investitsiyalar shaklida joylashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlari hisoblanadi; uchinchidan, banklararo kreditlar nisbatan qimmat moliyaviy resurs hisoblanadi, shu sababli, undan aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda foydalanish tijorat banklarining foizli xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi. Butun dunyoda 2024-yil bo'yicha eng yaxshi xizmatlar ko'rsatgan banklar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Eng yaxshi xizmatlar ko'rsatgan tijorat banklarning o'ntaligi [1]

2023-yilda egallagan o'rni	Tijorat banklar ro'yxati	2022-yilda egallagan o'rni
1	UBS	1
2	Credit Suisse	2
3	JP Morgan	3
4	Citi	5
5	Julius Baer	7
6	BNP Paribas	4
7	Pictet	8
8	Santander	6
9	HSBC	10
10	Goldman Sachs	9

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dastlabki 3 ta bank 2023-yilda o'z o'rnini saqlab qolgan holda, BNP Paribas 4-o'ringa, Santander esa 6-o'ringa tushib ketgan. Aksincha, pozitsion o'zgarish va yangi bank xizmatlarini joriy etish hisobiga Citi 5-o'ringa, Julius Baer esa 7-o'ringa 5-o'ringa ko'tarilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, top-10 talikka kirgan banklarning asosiy qismi AQSh va Yevropa hududida joylashgan xususiy banklarga to'g'ri keladi. Ularning barchasi rivojlangan mamlakatlarda joylashgani bilan ham ahamiyatlidir. Bu, albatta, banklarning resurs bazasi mustahkamligi, kapital va likvidlik ko'rsatkichlarining yuqoriligi asosida tuzilgan reyting hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar banklarining resurs bazasini o'rganish O'zbekiston tijorat banklari uchun ham muhim tajriba manbai hisoblanadi. Chunki bu davlatlarda banklar resurs bazasini mustahkamlash, diversifikatsiya qilish va boshqarish bo'yicha aniq andozalar va ilg'or tajribalar shakllangan. Ularning ijobiy jihatlarini milliy bank amaliyotiga tatbiq etish O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ham banklarning resurs bazasini mustahkamlash va boshqarish masalalari 1980-yillardan boshlab dolzarb vazifalardan biri sifatida shakllangan va bugungi kunda ham doimiy takomillashuv jarayonini boshdan kechirmoqda.

O'zbekiston amaliyotida bank resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq masalalar iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, moliya-bank tizimini liberallashtirish, raqamlashtirish va bozor tamoyillarini chuqurlashtirish bilan chambarchas bog'liq holda olib borilmoqda. Ayniqsa, Prezidentning 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmonida belgilanganidek, banklar resurslarining davlat manbalariga qaramligini kamaytirish, xususiy sektor ulushini oshirish va kapital yetarililigi ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimi amaliy natijalar bermiqda. Biroq shuni ham ta'kidlash joizki, hozirda ayrim tijorat banklari qisqa muddatli, ya'ni



stixiyali strategiyalar asosida faoliyat yuritayotganligi ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Shu bois tijorat banklari uchun strategik rejalashtirilgan, tizimli asosda ishlab chiqilgan resurs bazasini boshqarish modeli zarur bo'lib, bunda xorijiy tajriba va milliy xususiyatlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Banklar resurs bazasi hajmining o'sishi mamlakat bank tizimining mustahkamlanishiga yordam beradi. Shuni inobatga olgan holda, AQSh bank tizimi uchun yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan JPMorgan Chase bankining resurs bazasi tarkibini tahlil qilib chiqamiz. 2000-yilda JPMorgan & Co va Chase Manhattan Bank banklarining qo'shilishidan hosil bo'lgan ushbu yirik moliyaviy tashkilot nafaqat AQShda, balki dunyoning turli nuqtalarida o'z xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Hozirda JPMorgan Chase banki 2,623 trillion dollar aktivga ega bo'lib, uning bozor qiymati 390 milliard dollarni tashkil etadi. Bankning butun dunyo bo'ylab ko'plab filiallari mavjud bo'lib, ular mijozlarga sifatli va o'z vaqtida xizmat ko'rsatib kelmoqda.

2-jadval. JPMorgan Chase banki resurs bazasi tarkibi (foizda)

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Depozitlar	53,0	54,4	55,2	57,0	56,1
Federal rezerv oldidagi majburiyatlar	7,5	6,5	6,7	6,3	7,0
Qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlar	2,6	0,7	0,5	2,0	2,6
Boshqa jalb qilingan mablag'lar	1,2	0,9	0,9	0,0	0,0
Savdo majburiyatlari: qarz va sarmoya vositalari	5,9	5,4	5,5	4,9	5,5
Hosilaviy qimmatli qog'ozlar ostidagi majburiyatlar	8,0	7,6	7,6	7,5	7,5
Boshqa qarz va majburiyatlar	2,0	1,8	1,6	1,0	0,8
Uzoq muddatli qarz majburiyati	10,7	12,3	11,9	11,2	10,8
Bank kapitali	9,0	10,5	10,2	10,1	9,8
Jami resurs bazasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, JPMorgan Chase banki resurs bazasi tarkibida asosiy ulushni bankning depozitlari tashkil etadi. 2024-yil boshiga kelib, depozitlar 2021-yilga nisbatan 3,1 foizga oshgan. Ularning ulushi 2020-yilda jami resurs bazasining 53 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 56,1 foizga yetgan. Keyingi o'rinda uzoq muddatli majburiyatlar joylashgan bo'lib, ular 10,8 foiz ulush bilan bank resurs bazasi tarkibida muhim o'rinni egallab turibdi. Shuningdek, bank kapitalining ulushi ham 2020-yilga nisbatan 0,8 foizga ortib, 2024-yilda 9,8 foizni tashkil etgan. Ushbu raqamlar JPMorgan Chase bankining uzoq muddatli investitsion operatsiyalarni moliyalashtirish uchun mustahkam resurs bazasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratayotganidan dalolat beradi.

JPMorgan Chase bankining depozitlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, jami depozitlar tarkibida barqaror depozitlarning ulushi yuqori bo'lsa-da, so'nggi yillarda ushbu ko'rsatkichning pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, muddatli depozitlar ulushining kamayishi bankning qisqa muddatli likvidlikni saqlash siyosatini kuchaytirganini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, resurslarni omonatlar hisobidan jamlash jarayonining yetarlicha faollashtirilmayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, JPMorgan Chase banki resurs bazasining dinamikasi shuni ko'rsatadiki, bank o'z faoliyatini barqaror depozitlar, uzoq muddatli majburiyatlar va kapitalning optimal nisbatini saqlagan holda tashkil etmoqda. Bu yondashuv moliyaviy xavflarni kamaytirish, likvidlikni ta'minlash va investitsion salohiyatni oshirish imkonini bermoqda. Shu jihatdan, JPMorgan Chase bankining modeli O'zbekiston tijorat banklari uchun ham samarali tajriba manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bugungi kunda global moliyaviy muhitning o'zgaruvchan sharoitida eng muhim strategik masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror resurs bazasini shakllantirish uchun kapitalni diversifikatsiya qilish, likvidlikni boshqarishning ilg'or mexanizmlaridan foydalanish hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy moliyaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar banklarning resurs bazasini kengaytirishda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda. Xorijiy tajriba milliy bank tizimi uchun bir qator saboqlarni beradi. Jumladan, tijorat banklari o'z faoliyatida kapital yetarliligini oshirish, resurslarni diversifikatsiya qilish bilan bir qatorda mijozlar bilan ishonchli aloqalarni rivojlantirish, risklarni samarali boshqarish va investitsiya faoliyatini kengaytirish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratishi lozim.



Taraqqiy etgan mamlakatlar tijorat banklari resurslarining umumiy hajmida muddatli va jamg'arma depozitlari yuqori ulushni egallaydi. Bu holat banklarning moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaruvchi kredit muassasasi sifatidagi faoliyati bilan izohlanadi. Tijorat banklarining resurslari tarkibida qisqa muddatli depozitlarning ulushi o'rta va uzoq muddatli depozitlarga nisbatan yuqoriligi, o'z navbatida, bank kredit portfelida qisqa muddatli kreditlarning ko'pligi bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari resurs bazasining yetarliligi ta'minlangan bo'lib, bu ularga aktiv operatsiyalarni barqaror tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali jalb qilingan mablag'lar banklarning resurs bazasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, taraqqiy etgan mamlakatlar tijorat banklari resurslari tarkibida banklararo kreditlar ulushi past bo'lib, bu holat banklararo kreditlar narxining yuqoriligi hamda depozit bazasi yetarli bo'lgan banklarning ushbu manbadan foydalanishga ehtiyoj sezmasligi bilan izohlanadi. Demak, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish milliy bank tizimining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda, mamlakatimiz tijorat banklari o'z resurs bazalarini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli manbalarni kengaytirish, kapital yetarliligi va likvidlikni ta'minlash hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali milliy moliya bozorining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ш.Ш.Саипназаров “Молия ва инвестициялар” ўқув қўлланма. ТДИУ – 2022 й. 57 б.
2. А.Р.Норов “Банк иши асослари”.-дарслик.-ТДИУ.:.-2022.-157б.
3. А.Р.Норов., Ш.Ш.Саипназаров “Тижорат банкларида молиявий инжиниринг методологиясини такомиллаштириш”. Монография. -Т.: ТДИУ, 2023 йил, 98 б.
4. Ш.Ш. Саипназаров ва Н.М.Шамсиев “Тижорат банкларида депозит операциялари самарадорлигини такомиллаштириш истиқболлари” монография. ТДИУ.: “Инновацион нашриёт” 2024 йил 87 б
5. Банки и банковское дело. Под ред. И.Т.Балабанова.- М.: Питер, 2003. -259с.
6. Банковская система в современной экономике: учебное пособие / под ред. Проф. О.И.Лаврушина.-М.:КНОРУС, 2011.
7. Банковское дело: базовые операции для клиентов: Учеб.пособие/ Под ред. А.М.Тавасиева.-М.:Финансы и статистика, 2005.С.-236.
8. Банковское дело: учебник для студентов вузов/ Е.П.Жарковская.-М.:Омега-Л,2005.С.100
9. Барлтроп К., МакНотон Д. Банковские учреждения в развивающихся странах. Том II. Интерпретация финансовых отчетов. -Вашингтон, Д.С. – ИЭРМБ, 1994. –С.133
10. Грачева М.В. Банковская система в развитых странах: некоторые проблемы цифровых технологий. М.: Ось-89, 2003. -с.8
11. Глушкова Н.Б. Банковское дело: учебное пособие.М.:Альма Матер, 2007.С.10



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>